
IJTIMOY SOHA OB'EKTLARINING KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIK HOLATI O'RGANILDI



Yurtimizda kuz fasli ham oxirlab, sovuq kunlar boshlanmoqda. Shundan kelib chiqib ayni paytda tumandagi ijtimoiy soha ob'ektlari, ta'lim va tibbiyot muassasalarining qishgi mavsumga tayyorligi alohida nazoratga olinmoqda.

Shu munosabat bilan tuman hokimi I.Novikov tegishli soha rahbarlari bilan birgalikda ijtimoiy soha ob'ektlari, jumladan, maktab, matabgacha ta'lim tashkilotlari hamda tibbiyot punktlarida bo'lib, ushbu muassasalardagi qish mavsumiga tayyorgarlik holati bilan yaqindan tanishmoqda.

Tuman rahbari bugun 1-sektor hududidagi 33-umumta'lim maktabida bo'lib, qish mavsumiga tayyorgarlik xolati hamda ta'lim jarayonlari bilan tanishdi. Tashrif chog'ida tuman hokimi o'quvchilar bilan suhbatlashib, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hamda muassasa rahbarlariga tegishli ko'rsatmalar berdi.



Shuningdek, tuman hokimi 6-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ham bo'lib, muassasada qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Tuman rahbari tomonidan mutasaddi rahbarlarga muassasada kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish yuzasidan olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlarini qisqa muddatlarda yakunlash va mavsumni betalofat o'tkazish bo'yicha tegishli topshiriqlar berdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-11-23 15:38:20